



## ZARAFSHON VOHASI SHAROITIDA NO'XAT NAVLARINING O'SISH, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI

**Mustanova Zarnigor Sobirovna**

Samarqand Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7715881>

Annotatsiya. Maqolada Zarafshon vohasida tuproq sharoiti va o'simliklarning ehtiyojlariga qarab no'xat navlarining belgilanadigan sug'orish miqdori, muddati, usullari, bir marta va mavsumda beriladigan umumiy suv normalari yig'indisi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlari: no'xat navlari, yer osti suvlari, tuproq baniteti, tuproqning suv-fizik xossalari, xlorofill.

Dunyo dehqonchiligida don, xususan bug'doy doni 2020 yilda 762 mln tonna ishlab chiqarilgan. Jahon dehqonchiligida 2019 yilda yalpi don hosili 2655 mln. tonna yetishtirilgan, shundan 28,7 foizi bug'doy doni hissasiga to'g'ri keladi. Donli ekinlar hosildorligini oshishiga asosan yangi navlarni joriy etish, ma'dan o'g'itlardan, suvdan samarali foydalanish, yetishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirish orqali erishilmoqda. Dunyo qishloq xo'jaligida so'nggi yillarda don hosili yetishtirishda yangi innovasion texnologiyalarni tadbiiq qilish orqali tuproq unumdorligini oshirish, mavjud bioiqlim resurslaridan samarali foydalanish, bir yilda ikki yoki uch marta hosil olish yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borish muhimligi qayd etilmoqda.

Sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga imkon yaratilmoqda. Boshoqli don ekinlari bilan atmosfera azotini tuganak bakteriyalar yordamida o'zlashtiradigan dukkakli don ekinlari bilan uyg'unlashgan holda ekish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'ngi yillarda takrorlanayotgan suv tanqisligi, oziq-ovqat maxsulotlariga jaxon bozorida narx-navoning muttasil oshib borayotgani, axolining oziq-ovqat maxsulotlariga bo'lgan talabini yanada to'liqroq qondirish, ayniqsa oqsil va moy tanqisligini bartaraf qilish, respublikada oziq-ovqat ekinlari maxsulotlarini yetishtirish xajmlarini yanada oshirish xamda ularning turlarini ko'paytirish pirovardnatijada qishloq axolisi daromadlari va turmush darajasini yuksaltirishni respublika hukumati qishloq xo'jaligiga aloqador bo'lgan olimlarni oldidagi dolzarb masala qilib qo'yimoqda.

Tuproq banitetini o'zgarishi - susayishi sug'oriladigan yerlarimizda qisqa rotatsion almashlab ekishda dukkakli don ekinlaridan kengroq foydalanishni talab qilmoqda va undan yuqori sifatli don yetishtirish uchun intensiv texnologiyalarni amalda joriy qilishni taqozo qilmoqda. SHunday





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

texnologiyalardan biri sug'oriladigan maydonlarda kuzda ekilgan boshqli don ekinlardan so'ng, bo'shagan maydonlarda oqsilga boy o'simlik no'xatning ertapishar navlarini takroriy ekin sifatida foydalanib, don xosildorligini ko'paytirish hamda uning ildiz biologiyasidan foydalanib tuproq unumdorligini ko'tarishda asosiy omillaridan deb xisoblasa bo'ladi.

O'simliklarda shu jumladan no'xat o'simligida hosildorlikni oshirishda o'simliklardagi fiziologik-biokimyoviy jarayonlarni chuqur o'rganish talab etiladi. O'simliklarning o'sish va rivojlanishi ko'proq ularning fiziologik-biokimyoviy xususiyatlar bilan bog'liqdir.

O'simliklarda hosildorlik yuqori bo'lishida o'simlikdagi fotosintez jadalligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki organik modda sintezi fotosintez jarayonida amalga oshadi. Fotosintez jadalligining yuqori bo'lishi yoki pasayishi xloroplastning asosiy komponentlari bilan bog'liq bo'lib, bu komponentlar bevosita o'simlik fotosintetik salohiyatini belgilaydi.

Xlorofill xloroplastning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi hamda uning tarkibidagi xlorofill "a" va "b" pigmentlari fotosintez jarayonida ishtirok etib, o'simlikning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etadi.

Zaravshon vodiysida voha va cho'l tuproqlari bo'lib, ular avtomorf va gidromorf tuproqlarga ajraladi. Ularning tuproq va gumus hosil bo'lish tabiiy sharoitlari hamda ularga antropogen omillar ta'sir kuchi turlicha bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi.

Zarafshon vodiysining tog' mintaqasida iqlim o'ziga xos bo'lib, vodiyning boshqa joylariga nisbatan harorat past va yog'ingarchilik yuqori bo'ladi. Bu holat tuproq gumusining guruhviy va fraksion tarkibiga ijobiy ta'sir qiladi. Xuddi shunga o'xshash holat gidromorf tuproqlarda kuzatildi.

Zarafshon vodiysi tuproqlaridan uzoq muddatli sug'orish va qishloq xo'jaligida foydalanish nafaqat organik moddalarning to'planishi, balki tuproqning unumdorligi va qo'llaniladigan o'g'itlar samaradorligining oshishi bilan ham ko'zatiladi. Bu, ayniqsa, cho'l zonasi tuproqlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Yashil barglarda xlorofill "a" miqdori xlorofill "b" miqdoriga nisbatan 20 -40 % ga yuqori bo'lib, fotosintezda asosiy rol o'ynaydi. Karotinooidlar quyosh nurlaridan ko'k va binafsha nurlarni yutib, xlorofill "a" ga uzatadi. SHu bilan birga xlorofillarni kuchli yorug'likdan himoya qiladi.

No'xat o'simligida fotosintetik pigment sintezining kuchayishi, hosildorlik ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'lib, don xosildorligining oshishiga olib keladi.





**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мустанов, С. Б., & Умурзакова, У. Э. (2019). Деятельность клубеньковых бактерий на корнях нута в условиях Узбекистана. In ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ (pp. 26-29).
2. Ташпулатов, Й. Ш., & Шерназаров, Ш. Ш. (2019). Euglenophyta в среднем течение реки Зарафшан (Узбекистан). Биологический журнал, (3), 11-13.
3. Mustanova, Z., & Mustanov, S. (2023). NO 'XATNING UMID NAVINING SUG 'ORISHNI ILDIZ TIZIMIDAGI TUGANAK BAKTERIYALAR SHAKLLANISHIGA TA'SIRI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(5), 94-95.
4. Shernazarov, S. S., & Tashpulatov, Y. S. (2020). Species Composition of Algae in the Food Tract of Common Silver Carp (*Hypophthalmichthys molitrix* vab.) in Growing Conditions.
5. Умурзакова, У. Э., Халилов, Н. Х., & Мустанов, С. Б. (2022). НҲХАТНИНГ (*Cicer arietinum* L.) ОСИЁ, ЎРТА ЕР ДЕНГИЗИ ВА ЕВРОПА ЭКОТИПЛАРИНИ ХУСУСИЯТЛАРИ. АГРОБИОТЕХНОЛОГИЯ ВА ВЕТЕРИНАРИЯ ТИВВИЙОТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 1190-1192.
6. Мухаммадиев Ж. Н., Абдусаломов, Ж. Т., Насимов, Х. М., Курбонова, Д. А., & Холмурзаев, Ф. Ф. (2021). Важность Микрокапсул Для Скрытия Вкусов И Запахов Веществ. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 2(6), 336-338.
7. Boboqandov, N. (2023). BOQILISH GRADIENTI TASIRIDA O'SIMLIKLAR YER USTKI BIOMASSASINING O'ZGARISHI (JANUBIY G'ARBIY QIZILQUM MISOLIDA). Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(5), 11-14.
8. Mahammadiyev, J., Yoqubov, M., & Eshonqulova, A. (2022). QISHLOQ XO'JALIGI PESTITSIDLARIDA ISHLATILADIGAN GERBITSID VA INSEKTITSIDLARNI SAQLASHDA KAPSULALASHNING AHAMIYATI. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(6), 277-279.
9. Boboqandov, N. (2023). EFEMER VA EFEMEROIDLARNING BIOMASSASINING BOQILISH TASIRI OSTIDA OZGARISHI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(5), 15-17.
10. Mahammadiyev, J. N., Raxmonov, V. N., Amonov, B. S., Abduqahhorov, J. M., & Mahammadiyev, M. N. (2021, December). MICROCAPSULATION COATING MATERIALS AND ITS APPLICATION IN FOOD TECHNOLOGY. In Archive of Conferences (pp. 58-60).